

O'QUVCHILAR ONGIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Lutfullayeva Sayyora Berdiyevna

Samarqand viloyati Nurobod tumani 60- maktab psixologi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'quvchilar ongini shakllantirishda psixologik yondashuvlarning o'rni, ahamiyati va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida yosh va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish, samarali muloqot o'rnatish hamda o'quvchilarning emotsional holatini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *psixologik yondashuv, o'quvchi ongi, motivatsiya, individual yondashuv, emotsional rivojlanish, ta'lim psixologiyasi.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim-tarbiya jarayoniga psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishda uning ongiga to'g'ri ta'sir ko'rsatish, psixologik holatini inobatga olish pedagog va psixologlarning asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bolalar va o'smirlar psixikasining nozikligi ularga individual yondashuvni talab etadi.

1. O'quvchi ongining psixologik xususiyatlari:

O'quvchi ongi — bu bilim, his-tuyg'u, ehtiyoj, qiziqish va ijtimoiy tajribaning yig'indisidir. Har bir yosh davrida ongning rivojlanish darajasi turlicha bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli tafakkur ustun bo'lsa, yuqori sinflarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash shakllanadi. Shu bois psixologik yondashuv yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi lozim.

2. Psixologik yondashuvning ta'limdagi ahamiyati:

Psixologik yondashuv:

- o'quvchilarda o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani shakllantiradi;
- o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi;

qo'rquv, xavotir va stress holatlarini kamaytiradi;
ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi.

O'qituvchi va psixolog tomonidan samimiy muloqot, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash o'quvchi ongida ta'limga nisbatan ijobiy munosabatni mustahkamlaydi.

3. Individual va differensial yondashuv:

Har bir o'quvchi o'ziga xos xarakter, temperament va qobiliyatga ega.

Psixologik yondashuvda individual farqlarni hisobga olish muhim hisoblanadi. Masalan:

tortinchoq o'quvchilar bilan qo'llab-quvvatlovchi suhbatlar;
agressiv xulqli bolalar bilan emotsional nazorat mashqlari;
sust o'zlashtiruvchilar bilan motivatsion treninglar olib borish ijobiy samara beradi.

4. Emotsional muhit va psixologik iqlim:

Sinfdagi sog'lom psixologik muhit o'quvchi ongining ijobiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Do'stona munosabat, adolatli baholash va hurmatga asoslangan muomala o'quvchilarning erkin fikrlashiga va faolligiga zamin yaratadi.

O'quvchilar ongiga psixologik yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Psixolog va pedagogning hamkorlikdagi faoliyati, o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish orqali barkamol, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash mumkin.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olishiga, dunyoqarashi shakllanishiga va barkamol inson bo'lib voyaga yetishishiga ta'sir etuvchi omillar ko'p. Bu omillar ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Ayniqsa, salbiy omillarning o'quvchilar ongiga ta'siri bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O'quvchi shaxsining shakllanishi davrida uning ongini zararli axborotlar, yomon muhit, noto'g'ri tarbiya, oilaviy muammolar, zo'ravonlik va boshqa salbiy ta'sirlar bilan bulg'ash uning keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolar, ishsizlik, axloqiy inqiroz, ommaviy madaniyat, noto'g'ri axborot manbalarining ko'pligi kabi holatlar

o'quvchilarning ijtimoiy muhitdan salbiy ta'sirlanishiga sabab bo'lmoqda. O'quvchilarning ongi ochiq bo'lgan davrda ular atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga moyil bo'ladi. Shu sababli, zararli axborotlar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi OAV materiallari, internetdagi cheklanmagan ma'lumotlar ularga salbiy ruhiy holatni shakllantiradi. Oilaning o'quvchi shaxsiga bo'lgan ta'siri katta. Notinch oilada voyaga yetayotgan bolalarda o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv, tajovuzkorlik, tushkunlik holatlari yuzaga keladi. Agar ota-ona o'z farzandi bilan yetarli darajada muloqot qilmasa, mehr ko'rsatmasa, bu holat bolada befarqlik, norozilik, ba'zan esa deviant xatti-harakatlarga olib keladi.

Oilaviy nizolar, zo'ravonliklar, befarqlik va nazoratsizlik o'quvchining ongini izdan chiqaradi. Maktabdagi muhit, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar ham salbiy omillar sirasiga kirishi mumkin. O'qituvchining pedagogik madaniyatsizligi, zo'ravonlik elementlari, tahqirli munosabat, adolatsizlik o'quvchida maktabga va umuman ta'limga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishiga olib keladi. Bu esa uning o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi, ijtimoiy moslashuv darajasini pasaytiradi. Yoshlar o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Ular hayotdagi har qanday muvaffaqiyatsizlikni chuqur his qilishadi. O'zini jamiyatda topa olmaslik, ijtimoiy bosim, o'ziga past baho berish, emotsional noturg'unlik kabi holatlar ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, depressiya, stress, nevroitik buzilishlar va boshqa ruhiy muammolar vujudga keladi. O'quvchining do'stlari va u bilan muloqotda bo'ladigan shaxslar uning shakllanishida bevosita ta'sir ko'rsatadi. Giyohvandlik, spirtli ichimliklar iste'moli, jinoyatchilikka moyillik aksariyat hollarda yomon guruhlar ta'sirida shakllanadi.

O'quvchining o'zini jamiyatda namoyon qilishga bo'lgan ehtiyoji, ko'rinish berish istagi uni bu yo'ldan boshlashga undaydi.

Salbiy omillarni oldini olish yo'llari

- Oilaviy muhitni sog'lomlashtirish: Farzand tarbiyasida otaonalarining faol ishtirokini ta'minlash zarur. Oilada mehr, ishonch va muloqot muhitini yaratish asosiy vazifadir.

- Maktabdagi tarbiya ishlarini kuchaytirish: O'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasida sog'lom psixologik muhit shakllantirish, sinf rahbarlarining ijtimoiy pedagogik ishlarini faollashtirish zarur.

- Psixologik xizmatlarni kuchaytirish: Maktab psixologlari faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish, ularning o'quvchilar bilan individual ishlash imkoniyatlarini kengaytirish kerak.

Ijtimoiy xavfsiz axborot muhitini yaratish:

- Ommaviy axborot vositalari va internetda yoshlar uchun mos, tarbiyaviy yo'naltirilgan kontentlar tayyorlash va targ'ib qilish lozim.

- Ijtimoiy faoliyatga jalb qilish: O'quvchilarni turli to'garaklar, sport, san'at, fan olimpiadalari kabi faol mashg'ulotlarga jalb etish orqali bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish muhim.

XULOSA

O'quvchilarning ongiga salbiy ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali va murakkabdir. Bu omillar ta'lim jarayonining samaradorligiga, shaxsning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ularni bartaraf etish uchun oilaviy, maktab va jamiyat darajasida kompleks yondashuv zarur. O'quvchilarning barkamol, ijobiy fikrlaydigan, ma'naviy pok shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun atrof-muhitning har bir tarkibiy qismi o'z mas'uliyatini chuqur his qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Qodirov A. "Yoshlar psixologiyasi". Samarqand, 2021.
2. Mavlonova R. "Pedagogik mahorat". Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2020.
3. G'ofurov O. "Zamonaviy ijtimoiy pedagogika asoslari". Toshkent, 2023.
4. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlari, 2022.
5. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi axborot byulleteni, 2023.
6. Ziyo.net